

BO'RIEV Jaloliddin Aliqulovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
 tayanch doktoranti, PhD
 E-mail: jburiyev1977@mail.ru

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDAGI DINIY-FALSAFIY QARASHLARI

РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА В ПОЭМЕ “КУТАДГУ БИЛИГ”

RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF YUSUF KHOS KHODJIB IN THE POEM «KUTADGU BILIG»

Annatsotsiya: Yusuf Xos Hojib o'rta asr turkiy xalqlari falsafiy tafakkurining rivojlanishida muhim o'rin tutgan mutafakkirdir. U nafaqat adabiyot va til sohasidagi iste'dodli arbob, balki o'z davrining atoqli faylasufi, atoqli olimi ham edi. Yusuf Xos Hojib ijodiy merosida turkiy xalqlar, qabilalar, oila, davlat, huquq va axloq tarixi o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Qutadg'u bilig, mutafakkir, din, adolat, axloq, dunyo, doston, falsafiy tafakkur, tarbiya va ta'lim.

Аннотация: Юсуф Хас Хаджиб – мыслитель, сыгравший важную роль в развитии философской мысли средневековых тюркских народов. Он был не только талантливым литератором и лингвистом, но и известным философом и ученым своего времени. В творческом наследии Юсуфа Хос Хаджиба отражена история тюркских народов, племен, семьи, государства, права и нравственности.

Ключевые слова: Кутадгу билиг, мыслитель, религия, справедливость, нравственность, мир, эпос, философская мысль, воспитание и образование.

Annotation: Yusuf Khas Khadhib is a thinker who played an important role in the development of the philosophical thought of the medieval Turkic peoples. He was not only a talented writer and linguist, but also a famous philosopher and scientist of his time. The creative heritage of Yusuf Khos Hadjib reflects the history of the Turkic peoples, tribes, family, state, law and morality.

Key words: Kutaju bilig, thinker, religion, justice, morality, peace, epic, philosophical thought, upbringing and education.

KIRISH

Yusuf Xos Hojib merosini o'rganishga tarixchi, adabiyotshunos va tilshunoslarning qator asarlari bag'ishlangan. Mutafakkir asarlarini o'rganishda faylasuflar ham o'z hissalarini qo'shganlar. Ulardan F.R.Ravshanov, A.A. Altmishbaev, A. I. Norinboev, O. K. Qo'ziboev va boshqa olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash joiz. Yusuf Xos Hojib merosining g'oyaviy mazmunini o'rganar ekanmiz, uning al-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino asarlaridan, ularning umumiy dunyoqarashidan, xususan, falsafiy qarashlaridan, shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari ijodidan xabardor bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

“Qutadg'u bilig” dostoni ilk turkiy adabiyotning ajoyib asaridir. Yusuf Xos Hojib ijodi janri bo'yicha Sharqda eng ommabop ta'lim-tarbiya va didaktik asarlar qatorida axloqiy yo'nalishdagi asarlar qatoriga kiradi. Unda nafaqat ijtimoiy-axloqiy masalalar, balki o'rta asr mutafakkirlarining ma'naviy izlanishlariga xos bo'lgan ko'plab falsafiy masalalar ham ko'tariladi.

ASOSIY QISM

Yosh avlodni tarbiyalashda o'qituvchi-murabbiylarimizning oldida turgan muhim vazifalar haqida Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: “Professor o'qituvchilarimizning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir” [4:13]-degan fikrlari pedagoglarimizning zimmasiga qo'yilayotgan muhim talablardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, har bir tarbiyachi-pedagog buyuk ajdodlarimiz bo'lgan Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk bobolarimizning axloq-odob haqidagi fikrlari, o'gitlarini maktabgacha ta'lim yoshidanoq bolalarga o'rgatishi, ularning boy ma'naviy-axloqiy merosidan har bir mashg'ulotlari va ta'lim-tarbiya jarayonida o'git-nasihatlar tarzida foydalanishi talab etiladi.

Yoshlarni yangicha tafakkurli, yuksak ma'naviyatli va madaniyatli erkin fikrlovchi, ma'naviy yetuk, barkamol shaxslar qilib tarbiyalashda nafaqat bugungi kun, balki asrlar davomida kurashib kelingan tarixiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yusuf Xos Hojibning mazkur asari haqida A.N. Kononov bunday ta'kidlaydi: "Barcha axloqiy yo'nalishlarga qaramay, "Qutadg'u bilig" axloqiy va didaktik ko'rsatmalar va ta'limotlar kitobi emas. Bu insonning jamiyatdagi ma'nosi va ahamiyatini tahlil qiladigan falsafiy asardir" [7:306]. Xuddi shunday fikrni

A. Erkabaev: "Qadimgi she'riy matnlarda nafaqat dunyoni musulmon idrok etishi, balki borliqni chuqurroq, tubdan anglashi ham mavjud bo'lib, u keyinchalik adibning "Qutadg'u bilig" dostonining falsafiy mazmuniga yo'l ochadi [9:197]. Albatta, Yusuf Xos Hojib falsafiy tafakkurining shakllanishida din, xususan, so'fiylik diniy oqim sifatida muhim rol o'ynadi. Binobarin, uning olam, axloq, inson taqdiri haqidagi fikrlari ketma-ketlik jihatidan bir-biridan farq qilmagan: ulardagi real unsurlar idealistik, utopik unsurlar va fantaziya bilan bog'langan. Lekin, "Qutadg'u bilig" dostoniga hayotdan ajralgan asar sifatida qaramaslik kerak.

Tadqiqotchi va tarjimon Fazliddin Ravshanov Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini ta'riflashicha, "Faylasuflar unda katta falsafiy mohiyatni ko'rsalar, adabiyotshunoslar betakror adabiy - badiiy san'atni, rahbarshunoslar rahbar va ish - faoliyat xarakteri, aksiologlar yuksak qadriyatlar tizimi, psixologlar inson ruhoniyligi, siyosatshunoslar boshqaruv nazariyasi, kratologlar hokimiyatshunoslik, pedagoglar tarbiya asoslari, tarixchilar ulkan meros, tilshunoslar til boyliklari, madaniyatshunoslar davr va millat, davlat va jamiyat madaniyligi, dinshunoslar insonning diniy va dunyoviy munosabatlarini ko'rish mumkin" [1:288].

XI asrda yashagan buyuk mutafakkirlardan biri Yusuf Xos Hojibning bizgacha yetib kelgan durdona asari - "Qutadg'u bilig" («Baxt-saodatga erishtiruvchi bilim»)dir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni axloqiy-tarbiyaviy asar sifatida Sharq O'rta asrining dunyoviy adabiyotiga mansub turkiy tildagi eng yirik yodgorliklardan biridir.

Yusuf Xos Hojibning "Kutadtu bilig" dostoni uning adabiyot, tarix, falsafa, axloqshunoslik va nafosatshunoslik sohasida juda keng bilimlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojib ajoyib mutafakkir bulib, uning fikricha inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan munosabatlarda ijtimoiy foydali mehnatdagina chinakam kamolotga erishadi.

Mutafakkir insoniylik deganda olijanob fazilatlariga ega axloqiy barkamollikni nazarda tutadi. Zero axloqiy kamolot insonning butun

hayoti va faoliyatining birlamchi asosidir. Shoir jumladan shunday deb yozadi:

"Kishining odobi yaxshi va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi, chunki yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir".

Yusuf Xos Hojib o'z davridagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlarining axloqiy hatti-harakati, hayot tarzi, kasb-kori, ruhiyligi haqida batafsil fikr yuritadi. Jumladan shoir, salbiy xatti-harakatlar, qusur va kamchiliklar haqida shunday deydi:

"Yaramas qiliqli kishidan omad ham yuz o'giradi, u g'amga giriftor bo'ladi. Andishali va xulqli pokiza kishilar soflikka intiladi. Andishasiz bo'lsa, u nuqsonli, nopokdir".

Yusuf Xos Hojib kishilarni sabrli bo'lmoqlik, ko'pchilikni boshqarishda obro'li bo'lmoqlikni maqsadga muvofiq ish deb biladi, jumladan:

"Shoshilmoq, yengil-elpi ishlarni qilmoqning oqibati zahmatli bo'ladi. Bunday noloyiq odat, ko'pchilikka bosh bo'lgan kishilarda bo'lsa, ularning yuzi bo'lmaydi, obrusi to'kiladi. Bek sog', hushyor, sergak bo'lishi lozim.

Shoir shuningdek, rostguylikni eng kerakli ulug' fazilatlaridan biri deb biladi va bu haqda quyidagi so'zlarni yozadi: "To'g'rilik va adolatga tayanuvchi beklik buzilmaydi. Odamda eng yomon illat, nuqson bu-boshliqning "yolg'onchi" degan nomni olishidir".

Shoir yana dostonida yomon fe'l, salbiy xislatlardan biri-johillik xaqida xam shunday yozadi:

"Buzuq fe'l kishini har doim bosib turadigan og'ir yukka o'xshaydi. U kishiga azob beradi. Yohud bunday odam misoli itdir. U o'zi istagan paytida senga tashlanishi mumkin. Yov qilmaydigan ishni, yomon, yaramas xulq-atvor qila oladi".

Salbiy xulqlardan yana biri bu fisqu-fasoddir. Turli bo'hton, mish-mish va uydirmalardan bugungi zamon odamlari ham aziyat chekishayotgani sir emas. Vaxolanki bu illat, barcha davr va zamonlarda ham qoralanib kelingan. "Qutadg'u bilig" da bu illat shunday qoralanadi:

"Fisqu-fasod-qut-saodat dushmani. Fasodchi elni buzuvchidir.

Qut, ya'ni baxt iqbol muqaddas bo'lib, u poklikni taqazo etadi".

Darhaqiqat, poklik, halollik, adolat kabi yuksak fazilatlar bor yerda albatta, qut-baraka, saodat ham bo'ladi.

Yusuf Xos Hojib ijodida chin insoniylik belgilari juda sodda va mazmunli qilib tasvirlanadi:

"Kerilish, takabburlik keraksiz narsa. Takabburlik to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Ko'nglini

kichik tutgan, kamtarlik yo'lida yurgan kishi ulug'likka yetadi".

Shoir insonlar orasida eng yetuk va obro'lisi bu nomusli odamdir deb biladi va quyidagi so'zlarni yozadi:

"Kishilar orasida eng yetugi-nomusli, uyat-andishalilardir. Nomusli odam kishilarning eng sarasi bo'lishga loyiq. Nomusliga har qanday ishni topshirish xato emas" [10:396].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi falsafiy qarashlari inson fazilatlarining shakllanishi, shaxsda ijobiy xislatlarni rivojlantirish va unga ta'lim-tarbiya berishda juda katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun xam mazkur asar asrlar osha o'z qiymatini yo'qotmasdan Sharq pedagogikasining nodir asarlaridan biri sifatida, bolalar ta'lim-tarbiyasi yo'lida ezgu maqsadlarda foydalanilib kelinmoqda.

"Qutadg'u bilig" asarida eng yaxshi insoniy fazilatlar hisoblangan adolat, aql-zakovat, qanoat asar qahramonlari sifatida ramziylashtirilgan, uning bir necha boblari axloq-odob, aql-zakovat, insoniylik, adolat haqida bo'lib, aql-idrok, insonning ulug'ligi ilm tufayli ekanligi ifoda etiladi, farzandga ilm, odob, hunar o'rgatish targ'ib qilinadi:

O'g'il- qizga o'rgat bilim va odob,
Baxtga yor bo'lar, u bo'lmagay xarob.
O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bular.

Yusuf Xos Hojib oilada o'g'il-qizni tarbiyalash, ularga odob-axloq, hunar o'rgatishni yoshlikdan boshlash, ularda yaxshi, go'zal xulqni tarbiyalash, ilmni o'rgatish, kabilarni bayon etadi. Shoir bilimli kishilarning aql-idrokli bo'lishi, o'z maqsadiga yetishi, har vaqt boshqalarga foydasi tegishini ifodalab shunday yozadi:

O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.
Bilimli zakoli, yetuk - nuqson yo'q
Qo'li ochiq bo'lsa, ko'zi, ko'ngli to'q.

Shuningdek, "Qutadg'u bilig" asarida kishiga baxt-saodat, yaxshilik va ezgulik til tufayli nasib etishi, shu sababli har bir kishi o'z tiliga etibor berishi noto'g'ri, yolg'on so'zlamasligi, ko'p gapirish ham odobdan emasligini quyidagi misralarda ifodalaydi:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,
Ortiq so'z - bu boshni etadi egik.
Tilingni avayla-omondir boshing,
So'zingni avayla - uzayar yoshing.

Yusuf Xos Hojib oilada o'g'il-qizni tarbiyalash, ularga odob-axloq, hunar o'rgatishni yoshlikdan boshlash, ularda yaxshi, go'zal xulqli

qilib tarbiyalash, ilmni o'rgatish, kabilarni bayon etadi, salomlashish odobi, uning mohiyatini quyidagicha ta'rifiydi:

Omon bo'ldi elga salom beruvchi,
Salomatlik topdi alik oluvchi.
Salom bo'ldi odam tinchiga garov,
Sog'liq olar salom bilan qoluvchi.

Shoir xushxulqlilik haqida esa quyidagicha fikr yuritadi:

Xulqi andishali, xush bo'lgan odam
Yovuz, yomon ishga qo'yamaydi qadam.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib o'z asarida inson kamoloti, uning axloq-odobi qirralari haqida fikr yuritadi, insonning yaxshi sifatlarini hayotiy tajribalari asosida jozibali ifoda etadi. Shu bois maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalardan boshlab toki oliy ta'lim muassasalaridagi yoshlarimizga ham asarda ifodalangan g'oyalarni tushuntirish, she'riy misralarning mazmunini tarbiya vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yusuf Xos Hojib, asosan, davlat boshqaruvi, siyosat, inson hayotining mazmun-mohiyatini tushunishga, matematika va astronomiya masalalariga ilmiy nuqtai nazardan qarashga harakat qilgan. Mutaakkir o'z she'rida xalq hikmatlari, turkiy xalq og'zaki ijodi, masal, matallardan keng va oqilona foydalangan. Yusuf o'z axloqida ko'pincha yer yuzidagi inson axloqini targ'ib qiladi, o'z boshidan kechirgan voqealarni to'g'ri tasvirlaydi va baxtga intilishga chaqiradi.

Yusuf Xos Hojib falsafiy fikrlarida ta'lim-tarbiya masalasi alohida o'rin tutadi. Gnoseologik nuqtai nazardan, "Qutadg'u bilig" dostoni tahlili shuni ko'rsatadiki, bilish nazariyasining boshlang'ich nuqtasi inson o'rtasidagi axloqiy munosabat va uning tabiat bilan aloqasi hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning bilish jarayoni haqidagi falsafiy fikrlari bevosita Sharq peripatetiklarini tan olish nazariyasidan kelib chiqqan. Biroq, "Qutadg'u bilig" dostonining sarlavhasida Sharq peripatizmi gnoseologiyasining asosiy tamoyili – bilim va fazilatning mos kelishi bayon etilgan. Albatta, so'filylik Yusuf Xos Hojibning bilish nazariyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biroq, mutafakkir o'z gnoseologiyasida undan tashqariga chiqdi. Shu nuqtai nazardan uning haqiqatni to'g'ri va xolis ko'rsatish borasidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda u kognitiv jarayonning asosiy vazifalaridan birini ko'rdi. Yusuf Xos Hojib shuningdek, uning atrofidagi dunyoni barcha xilma-xilligi bilan bilish imkoniyati va ehtiyoji g'oyasining tarafdoridir. U o'zining falsafiy qarashlarida inson ongining narsalar mohiyatiga kirib borish qobiliyatini cheklamaydi.

Atrofdagi dunyo haqiqatini bilish, uning fikricha, tugamaydigan va cheksiz jarayondir.

Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojib bilimning inson hayotidagi hal qiluvchi o'rni haqidagi g'oyani ilgari surdi, ob'ektiv haqiqatni bilish imkoniyati va zarurligini targ'ib qildi. O'rta asrlarda uning insonning atrofidagi dunyoni barcha xilma-xilligi bilan bilish qobiliyati haqidagi g'oyalari tubdan dadil edi. Albatta, "Qutadg'u bilig" dostoni, eng avvalo, axloqiy-didaktik asardir. Shuning uchun u axloqiy masalalarni eng keng qamrovli tarzda hal qiladi. Dostonning bosh qahramonlari obrazlarida axloqning asosiy tushunchalari o'z ifodasini topgan. Asarga asos bo'lgan to'rt xil tushuncha haqida Yusuf Xos Hojib shunday degan:

"Ulardan biri haqiqat yo'li, Adolat
Ikkinchisi – qut va baraka, Davlat.
Uchinchisi aql va donolik,

To'rtinchisi – vazminlik, qanoatdir." [5:243].
Shunday qilib, adib muhim axloqiy kategoriyalarni ajratib ko'rsatadi, asosiy fazilatlarini boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog'lash orqali tizimlashtirishga harakat qiladi.

Ma'lumki, "Qutadg'u bilig" dostoni muallifi uchun adolatli hukmdor masalasi asosiy masala hisoblanadi. Binobarin, "adolat" tushunchasi Yusuf Xos Hojib ijtimoiy-axloqiy ta'limotining mutlaq va obektiv asosidir. Boshqa axloqiy tushunchalar nisbiy va sub'ektiv xarakterga ega. Adolat jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir. Adolat tamoyillariga asoslangan jamiyat hamisha ravnaq topadi. U "adolat" tushunchasiga asosan ijtimoiy nuqtai nazardan qaraydi. Shu munosabat bilan adolat davlat rahbari ham, jamiyat a'zolari ham birlari oldidagi o'z vazifalarini bajarishini, har biri ijtimoiy-siyosiy vaziyatga mos ravishda mehnat taqsimoti asosida o'z burchini bajarishini nazarda tutadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Yusuf Xos Hojibning adolat mavzusidagi qarashlari uning adolatli boshqaruv shakli haqidagi g'oyalari ichida eng yorqin ifodasidir. U adolatli hukmdor obrazini yaratishga harakat qildi, lekin bu yo'nalishdagi izlanishlari uning ideal ijtimoiy tuzum haqidagi g'oyalari, jamoat tartibini takomillashtirish haqidagi utopik g'oyalari bilan yakunlandi.

Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarida eng qimmatlisi uning axloqiy tarbiya muammolari haqidagi fikrlaridir. Yoshlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Mutafakkir sho'irning fikricha, axloqiy kamolot inson hayotining asosidir [5:286]. Tarbiya va ta'limda insonda ichki va tashqi kamolot, uning jismonan va ma'naviy go'zalligining birligi bo'lishi kerak. Yusufning fikricha, bolalarning axloqiy rivojlanishi ota-onalar

va atrof-muhit ta'siriga bog'liq. Shunday qilib, u universal determinizm va tabiat hodisalari, ijtimoiy hodisalar va jarayonlar g'oyasini ta'kidlaydi. Shaxsni tarbiyalash bolalikdan samaraliroq amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib dunyoqarashining chegaralanganligiga qaramay, uning axloqiy didaktikasi nafaqat keng tarqaldi, balki turkiy va boshqa Sharq xalqlarining keyingi ilg'or mutafakkirlari dunyoqarashiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. A.A.Altmishbaev shunday deb yozgan edi: "Yusuf Xos Hojib ijodiy merosi turkiy tilli xalqlarning umumiy realizm madaniyati rivojiga, ilg'or ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalar rivojiga ta'sir ko'rsatganligi aniq" [3:113]. Darhaqiqat, uning insonparvarlik qarashlari O'rta Osiyo xalqlari folklorida ham, yozma adabiyotida ham o'z ifodasini topgan. U insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Uning merosi turkiy tilli xalqlar falsafiy tafakkurining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Umuman, Yusuf Xos Hojib fenomenini Homer, Firdavsiy, Dante, Navoiy, Shekspir, Gyote, Tolstoy singari daholarga nisbatan o'rganish zarur.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahon turkologiyasining buyuk obidasi "Qutadg'u bilig" va uni o'rganishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya to'plami.- Toshkent, 2020. – 288 b.
2. Кароматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан. 1993. – 96 б.
3. Келімбетов Н. Түркі халықтарының ежелгі әдеби жәдігерліктері. – Алматы: Паритет, 2011. – 243 б.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz- Toshkent, Uzbekiston, 2016, 13-bet.
5. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. III жилдлик 1-жилд. – Тошкент: Ўқитувчи, 1963. – 496 б.
6. Norinboev A.I., Qosimov A. Yusuf Xos Hojib Balasag'unij dunyoqarashi / O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikri. – Bishkek, 1991. –S. 113
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. J.26: Yusuf Xos Hojib. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 556 b.
8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / F.Ravshanov tabdili. – Toshkent, 2015. –197 b.
9. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – Toshkent: Fan nashriyot, 1971. – 306 b.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig/ www.ziyouz.com. kutubxonasi.